



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-noyabr


## RAQAMLAR:

- Xizmatlar sohasida 13,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.
- 2018 yil yanvar-noyabr oylarida bozor xizmatlari hajmi 6321,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1993,2 ming.so'mni tashkil etdi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagi xizmatlar ko'rsatmaydigan yoki hech bo'lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli qolmagan.


Hozirgi vaqtda viloyatda 20,8 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan, xizmatlar sohasida 13,1 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 63,0 % ni tashkil etdi.

## 2018 yil 1 dekabr holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2018 yil 1 dekabr holatiga, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (35,9 %) yuqori ulushni egallaydi.

**2018 yil 1 dekabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %**



Yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan o'zaro hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish yashash va ovqatlanish xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilot sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 6,9 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-noyabr oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6321,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,4 % ni tashkil etdi.

**2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

|   | <b>Hajmi,<br/>mlrd.so'm</b> | <b>O'tgan yilga<br/>nisbatan o'sish<br/>sur'ati, %</b> |
|---|-----------------------------|--|
| <b>Xizmatlar - jami</b>   | <b>6321,9</b>               | <b>107,4</b>   |
| shu jumladan:   |                             |  |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari   | 388,4                       | 113,2  |
| moliyaviy xizmatlar   | 706,0                       | 124,6  |
| transport xizmatlari  | 1451,5                      | 103,3  |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari  | 1391,0                      | 102,7  |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari   | 194,2                       | 104,7  |
| savdo xizmatlari  | 2132,5                      | 103,0  |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar   | 205,3                       | 104,0  |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar   | 213,3                       | 129,9  |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar  | 67,5                        | 110,1  |
| ijara xizmatlari  | 179,2                       | 112,3  |
| kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash<br>bo'yicha xizmatlar                       | 231,5                       | 102,3  |
| shaxsiy xizmatlar   | 238,8                       | 102,2  |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik<br>sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 69,4                        | 111,1  |
| boshqa xizmatlar  | 244,3                       | 112,5  |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari hajmi (2132,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlar (1451,5 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlari (706,0 mlrd. so'mga), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (388,4 mlrd. so'mga), shaxsiy xizmatlar (238,8 mlrd. so'mga) oshganligi kuzatildi.

Savdo xizmatlari sezilarli darajada oshganligi kuzatildi. Savdo xizmatlarini quyidagi sohalarda ko'rishimiz mumkin. Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar (5,4 %), ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) (13,0 %), avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar (81,6 %).




■ Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar

■ Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, %




Xizmatlar hajmining nisbatan sezilarli oshishi moliyaviy xizmatlar (124,6 %) sohasidagi xizmatlar bo'yicha kuzatildi. Shu jumladan sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar 91,4%, sug'urta bo'yicha xizmatlar 7,0%, yordamchi moliyaviy faoliyati 1,6% ni tashkil qildi.



Ularning hajmi 2017yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan 202,5 mlyd so'mga oshdi. Bunga banklarning aholiga ajratayotgan kreditlarini xajmini oshishi hamda chet davlatlarda ishlayotgan fuqorolardan banklarimizga kelib tushayotgan pul mablag'larini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Eng yuqori o'sish ta'lim sohasidagi xizmatlar (129,9 %), moliyaviy xizmatlar (124,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,2 %), ijara xizmatlari (112,3%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (111,1 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


## 2018 yil yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (102,2%), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (102,3%) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari 104,7% tashkil etdi. Bunda oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ulushi (91,9%), yashash bo'yicha xizmatlar ulushi (8,1%) ni tashkil qiladi.





O'zbekistonning gestrategik jozibadorligining eng muhim omili transport komunikatsiyalari rivojlangan tizimining mavjudligi hisoblanadi. Hozirgi paytda mamlakatning transport tizimi ichki tashish ehtiyojlarini to'liq qondiradi.


Mavjud temir yo'l va avtotransport komunikatsiyalari tarmog'i respublikaning eng chekka hududlari va aholi punkitlarini o'zaro ishonchli bog'laydi, shuningdek mamlakat tabiiy va mineral-xom ashyo resurslarining asosiy manbalariga keng yo'l ochib beradi.

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (22,0 %) egallaydi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari sezilarli ulushni egallaydi. 2018 yil yanvar-noyabr oylarida uning ulushi (33,7%) ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (23,0%), moliyaviy xizmatlar (11,2%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,1 %) egallaydi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



2018 yil yanvar-noyabr oylarida ko'rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, %



Sog'liqni saqlash sohasidagi bo'yicha nisbatan yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan xizmatlar lekin ularning ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi arzimasi (1,1 %) ni tashkil etadi.

2018 yil yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1993,2 ming.so'mga teng bo'ldi. 2017 yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 290,9 ming.so'mga oshdi.

